

Milliy dinlar

Категория: Миллий ғоянинг илдизлари – Диний;

Муаллиф: Хошимов Ш

Milliy dinlar - ma'lum millatga xos bo'lgan, boshqa millat vakillari tomonidan qabul qilinmaydigan dinlardir.

Insoniyat jamiyati tarixiy taraqqiyotida urug' - qabila dinlari ibtidoiy jamiyatda vujudga kelib, asosan tabiat kuchlarini ilohiylashtirib ularga sig'inishdan iborat bo'lsa, milliy davlat dinlari jamiyatda mehnat unumdorligi o'sib, ortiqcha mahsulot, xususiy mulkchilik, jamiyatda ijtimoiy guruh va tabaqalar paydo bo'lishi sharoitida vujudga kelib, milliy davlat dinlarining ham jahon dinlari kabi bir qator o'ziga xos jihatlari mavjud edi. Eng avvalo diniy ta'limotning asosiy talablari, aqidalari, falsafiy va axloqiy meyorlari ishlab chiqildi.

Diniy ta'limotda olamning uch bosqichdan iborat ekanligi, jannat, do'zax va odamlar yashaydigan dunyoning mavjudligi to'grisidagi qarashlar ilgari surildi. Ibadatxonalar qurilib, vazifasi faqat dinga xizmat qilishdan iborat bo'lgan ijtimoiy guruh, ruhoniylar guruhi tashkil topdi. Diniy ibodat va marosimlarning muayyan tizimi ishlab chiqilib, kundalik hayotda ularga amal qilina boshlandi.

Milliy davlat dinlarining o'ziga xos xususiyati bu dinlarning bir yoki bir necha millatga taalluqli ekanligidir. Milliy davlat dinlaridan xinduzim, jaynizm, sinxizm xindlarning, daosizm va konfusiychilik xitoylarning, sintoizm yaponlarning, iudaizm yaxudiylarning milliy davlat dini bo'lib hisoblanadi. Zardushtiylik dini o'z davrida ko'plab xalqlar, davlatlar hududida tarqalgan din bo'lib, bugungi kunda Sharqiy Eron va Shimoli - g'arbiy Hindiston hududidagi narslar o'rtasida e'tiqod qilinib kelinayotganligi uchun ham milliy davlat dinlari qatorida e'tirof etiladi. Milliy davlat dinlari muayyan xalqning urf-odati, an'analari, turmush tarzi va milliy o'ziga xosligi bilan bog'liq ravishda shakllanib borgan.

Hinduizm. Hinduizm juda murakkab din bo'lib u kastachilik asosida tashkil etilgan. Hindistonda qadimgi davrlardan boshlab, Braxmanizm, Veydizm kabi diniy ta'limotlarga e'tiqod qilinib, eramizdan avvalgi VI asrda Hindistonda Buddaviylik dini vujudga keldi. Buddaviylik Braxmanizmdagi bir necha jihatlarni qabul qilgan bo'lsada, kasta ta'limotini inkor etdi. O'sha davrda Hindistonda kasta tuzumini saqlab qolishga, Braxmanizm dinini isloh qilib, qayta tiklashga qaratilgan harakat boshlandiki, bu harakat Braxmanizm bilan Buddaviylik o'rtasidagi kurashni ifodalovchi Hinduizm dini edi.

Hinduizm dini xindlarning milliy davlat dini bo'lib, Hindiston aholisining 83 foizi, yani 650 mln. kishi Hinduizmga e'tiqod qiladi. Hinduizmga e'tiqod qiluvchilar soni jihatidan jahonda uchinchi o'rinda turib, barcha Hinduizmga e'tiqod qiluvchilarning soni 700 mln kishini tashkil etadi. Hinduizmga e'tiqod qiluvchilarning yirik jamoalari boshqa mamlakatlarda ham mavjud bo'lib, Bangladeshda 12 mln, Indoneziyada 3.6 mln, Shri Lankada 3 mln, Pokistonda 1.5 mln, Malayziyada 1 mln, AQShda 0.5 mln, Butanda 0.3 mln kishi Hinduizmga e'tiqod qiladi. Hinduizmni qabul qilmoqchi bo'lganlarga qo'yiladigan birinchi va asosiy shart bu Hindistondagi kasta tuzimini qabul qilishdir.

Hinduizm o'zining asosi hisoblangan Braxmanizm va Veydizmdan farqlanib, unda yangi Braxmanizm dinlari, bu dindagi oqimlar mujassamdir.

Hinduizmga eski hind dinlaridan qabul qilingan asosiy talablar quyidagilardan iboratdir.

1. Tushuncha va qonunlarning asl manbai bo'lgan vedalarning muqaddasligi;
2. Guru ya'ni pir, ustozning tan olinishi;
3. Muqaddas joylarga ziyoratga borish;
4. Sanskritning muqaddas til ekanligini tan olish;
5. Sigirning muqaddas hayvon sifatida tan olinishi.

Bu besh qoida yoki aqida ko'pchilik tomonidan tan olingan bo'lsada, ko'psonli e'tiqod qiluvchilar orasida o'ziga yarasha farqli va umumiy bo'lgan jihatlariga egadir.

Hinduizmda eng avvalo vedalar muqaddas bo'lib hisoblanadi. Undan keyin "Maxabxarata" singari xalq og'zaki ijodi namunalari ham muqaddas yozuvlar qatoriga qo'shiladi. Hinduizm dinida braxmanlar asosiy, imtiyozli kasta bo'lib hisoblanadi. Hinduizmga taalluqli bo'lgan adabiyotlarning ko'pchiligi braxmanlar tomonidan yaratilgan. Braxmanlar Hinduizmni zamon talablariga moslashtirib, yangi qonun- qoidalarini ishlab chiqib turli oqimlarni yuzaga keltirdilar. Hinduizmga e'tiqod qiluvchi braxmanlar turli yo'llar bilan kasta, varna tizimini tan olmagan va inkor etgan o'z raqiblari bo'lgan buddaviylarga qarshi kurash olib borganlar. Shu bilan birgalikda Hinduizmning Braxmanizmdan farqli jihatlar ham mavjud bo'lib, Braxmanizm braxmanlarning kelib chiqishi faqat oliy tabaqa vakillaridan iborat deb hisoblasa, Hinduizm ta'limotiga ko'ra braxmanlar nafaqat oliy tabaqa vakillaridan, balki oddiy xalq ichidan, hatto ayollardan ham bo'lishi mumkin deb hisoblanadi.

Hinduizmda e'tiqod qilinuvchi asosiy xudolar trimurti ya'ni uchlikdan iborat bo'lib, unga Braxma, Vishnu, Shiva xudolari kiradi. Bu uch xudodan eng kattasi dunyoni yaratgan xudo Braxma bo'lib hisoblanadi. Braxma dunyoni yaratgan asosiy xudo bo'lib hisoblansada, Hinduizmda qolgan ikki xudo, Vishnu va Shivaga sig'inadilar. Shunga asosan Hinduizm ikki asosiy oqim Shivaga sig'inuvchilar va Vishnuga sig'inuvchilarga bo'linadi. Shiva oddiy xalq ommasi - kambag'allarning ilohi bo'lib hisoblanib, u Rigvedaning birinchi nusxalarida Rudra nomi bilan zikr etilgan. Atxaravedada Rudraning roli oshib borib, Yajurvedada Rudra Agni timsolida berilgan. Shiva xalq orasida turli nomlar bilan atalib, bu nomlarga Ishana, Ishvara, Maxadeva ya'ni buyuk xudo kabilar taalluqlidir.

Hindistonda Shivaizmning o'n uchga yaqin asosiy oqimlari mavjud bo'lib, shivachilar orasida asosiy oqim sifatida tridandinalar (uch tayoqlilar) va smartlar (smriti- haqqoniy rivoyat) oqimlari e'tirof etilgan. Tridandinalarning markazi Varanasi bo'lib, unda tarkidunyochilikda hayot kechiradilar. Smartlarning bir qismi rohiblikda, yana bir qismi- dunyoviylik holatida yashaydilar. Ushbu oqimlarning har ikkalasi ham faqat braxmanlarni o'z saflariga qabul qiladi. Dandilar, ya'ni zohidlar diniy oqimga kirayotgan paytda oyoqlarining pastki qismidan qon chiqaradilar. Dandilar o'lganlarni yerga dafn qiladilar yoki muqaddas daryolardan biriga topshiradilar. Shivaizmda lingachilar degan oqim ham mavjud bo'lib, ular bo'yinlariga linga osib yuradilar, ibodat paytida esa uni chap qo'llarida tutib turadilar. Shivaizmdagi Shaktra yoki Shakta oqimida hayvon yoki odamlarni qurbon qilish an'anasi mavjud. Yoglar esa Shivaizmdagi tarkidunyochilik yo'nalishi bo'lib, ular uzoq vaqt nafas olmay o'zlaridan ketadilar, bu vaqtda ular Shiva bilan yolg'iz qoladilar. Yoglar jismoniy mashqlar yordamida o'z ruhlarini poklab hattoki o'z tanalaridagi a'zolarini boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Yogo'z yurak urishini tezlashtirishi yoki sekinlashtirishi, odamlar oldida havoga ko'tarilishi mumkin. Hindiston xalqi orasida Shivaning 1008 ta nomi bor.

Vishnu Hindistondagi xudolar panteonida birinchilik uchun kurashayotgan ikkinchi iloh bo'lib, Rigvedada tabiatga jon ado etuvchi quyosh xudosi Vishnu birinchi darajali va o'ta sahiy iloh sifatida tasvirlangan. Ibadat paytida Vishnuni Savitar, Roxita, Surya, Adita nomlari bilan ham ataydilar. U butun koinotni uch qadamda bosib o'tishi va havoda muallaq yura olishi xususiyati bilan tarflanadi. Hindlarning tasavvuriga ko'ra, yarim inson, yarim hudo shaklidagi qahramon Krishna Vishnuga qo'shilib ketgan, deb tasavvur qilinadi.

Hind dostonlari Maxabxarata va Ramayanada avatara, ya'ni insonning Vishnuga qo'shilib ketishi haqida so'z boradi. Hindlarning tasavvuriga ko'ra, Vishnu gohida to'rt qo'lli qilib tasvirlanadi. Vishnuizmda inson yoki hayvonni qurbonlik qilish talab qilinmaydi. Hindlarning afsona va dostonlarida Krishna jangovar, yengilmas qahramon sifatida ta'riflanadi. Krishna urushda ham, sevgida ham yengilmas bahodir, ammo juda ayyor tabiatga ega bo'lib, xalq orasida u erotik iloh hisoblanadi. Krishnaga sig'inuvchilar Mattra shahri va uning atrofiga yashaydilar.

Vishnuizm bayramlari turli tuman bo'lib, ba'zilar umumiy, ba'zilar esa tabaqalarga ajratilgan holda o'tkaziladi. Vishnuizm bayramlarida duolar o'qilib, ta'zim bajo keltiriladi. Ommaviy diniy marosimlarda qatnashiladi, turli hadya va qurbonliklar qilinadi, ibodatxona yaqinida yoki ichidagi muqaddas xovuzda cho'milinadi va bu tadbir majburiy bo'lib hisoblanadi. Marosimlar ba'zida bir necha kunga cho'zilib, bu marosimlarda xudolar hamda ruhoniylarga hadyalar ataladi. Qurbonliklar turli gullar, xushbo'y narsalar, ovqatlar, xudolar nomiga atab ozod qilinadigan va so'yiladigan hayvonlardan iborat bo'ladi. Qadimgi davrlardan boshlab sigir hindlar e'tiqodidagi muqaddas hayvonlardan biri bo'lib hisoblanib, sigirni qurbonlik qilish yoki boshqa maqsadlarda o'ldirish katta gunoh hisoblangan. Sigirning besh mahsulotidan tayyorlangan panchagavyam hinduiylar e'tiqodiga ko'ra odamlarni va uylarni poklashda alohida kuchga egadir. Hinduizmda sigir muqaddas hayvon hisoblanganligi uchun u xudolar bilan bir qatorda ehtirom qilinadi. Vishnuizmning muqaddas hayvon esa maymundir. Ramayana dostonida maymun- xudo Xanuman va uning dostonning boshqahramoni Ramga ko'rsatgan yordami tasvirlangan. Hindlarning diniy e'tiqodi Hinduizmning ilon, sher, fil, ba'zi qushlar ham ilohiylashtirilgan bo'lib, Hindistonda mavjud bo'lgan ko'pgina hayvonlar xudo yoki xudoning hamrohi deb e'lon qilinib, ularga e'tiqod qilinadi.

Hinduizmning bir qator bayramlari bo'lib, Krishnaning tug'ilgan kuni avgustda va Shivaning tug'ilgan kuni fevralda nishonlanadi. Hindistondagi dinlarda muqaddas joylarni sig'inish masalasiga katta e'tibor qaratiladi va bu narsa Hinduizmga ham taalluqlidir. Maxabxaratada Hindistonning shimolida joylashgan bir necha muqaddas ziyoratgohlar ko'rsatib o'tilgan.

Hinduizm hamma vaqt boshqa dinlarga murosalligini bilan ajralib turgan. Bu din ayni paytda boshqa xalqlar dinlaridagi zarur deb hisoblangan tomonlarni o'z ta'limotiga singdira olish xususiyatiga ham ega dindir.

Jaynizm. Jaynizm er.av. VI asrda Hindistonda vujudga kelib, bu dinning asoschisi kshatriya kastasidan chiqqan afsonaviy Vardxamana Maxavira bo'lib hisoblanadi.

Jaynizm dini vakillarining e'tiqod qilishicha, bu ta'limotga 24 tirtxakar (payg'ambar yoki avliyo) asos solgan bo'lib, ularning barchasi kshatriylar xonadonidan bo'lgan. 23 –tirtxakar- Vardxamana Maxaviradan 250 yil avval yashagan Parshvanadxa – Banoras podshohi Ashvasanning o'g'li bo'lib, u rohiblik yo'lini ixtiyor etib, otasining saroyini tark etadi hamda o'zidan keyin juda ham chiroyli nizomga solingan diniy ko'rsatmalar qoldiradi. Vardxamana Maxavira Jaynizmning navbatdagi va so'nggi 24- tirtxakari bo'lib, u o'ttiz yoshigacha oddiy dunyoviy kishilardek hayot kechirgan. Keyin esa barcha mulkidan voz kechib ko'p yillar sayohat qiladi. 42- yoshida Vardxamana eng oliy bilimga ega bo'lib, uni shodlik va qayg'ulardan ozod qilgan va uni yuqori darajadagi diniy ustozlarga beriladigan Jina nomini olishiga olib kelgan.

Jina “g’olib” degan ma’noni bildirib, ruhning tana ustidan g’olib kelishini anglatadi. Keyinchalik esa Vardxamanaga Maxavira ya’ni “ulug’ qahramon” unvoni berildi. Maxavira ko’p yillik sayohatlari davomida ko’plab insonlarni o’ziga ergashtirib, uning shogirdlari Nigrantxa ya’ni “kishandan ozod qilinganlar” deb atala boshlandi. Vardxamana Maxavira rohiblar oddiy erkak va ayollar barobar e’tiqod qila oladigan diniy ta’limotga asos soldi. Vardxamana Maxavira er.av.527 yilda 73 yoshida vafot etdi. Jaynizm ta’limotiga ko’ra Vardxamana Maxavira nirvana ya’ni so’nggi ozodlik holatiga erishgan inson sifatida e’tirof etiladi. Jaynizm ta’limotining asosiy g’oyasi nirvana va karma haqidagi ta’limot bo’lib, bu ta’limot boshqa hind dinlariga ham xosdir. Nirvanaga erishgan inson qayta tug’ilishdan ozod bo’lib, bunga faqat tarkidunyochilik orqali erishish mumkin, deb hisoblanadi Jaynizm. Shuning uchun Jaynizm ta’limotida tarkidunyochilikka alohida e’tibor beriladi. Jaynizm ta’limoti bo’yicha inson dunyoda o’zining barcha ehtirosalaridan voz kechib, o’z nafsini tiyishi, o’z-o’zini yengishi talab qilinadi. Najotga hamda abadiy, rohat farog’atga faqat taqvdorlik bilan hayot kechirgan odamgina erisha oladi. Har bir kishidan ta’limotning haqqoniyligiga ishonish, shu e’tiqodga asoslangan mukammal bilimga ega bo’lish, shuningdek, din aqidalariga og’ishmay amal qilib yashash talab etiladi.

Jaynizmda ikki asosiy yo’nalish mavjud bo’lib, ularning birinchisi- digambarlar deyiladi. Bu yo’nalish tarafdorlari hayotning barcha lazzatlaridan, hatto nikohga kirishishdan ham voz kechganlar, ular hech nimani, xatto oddiy hasharotni ham o’ldirmaslik to’g’risidagi ta’limotga amal qiladilar.

Ikkinchi yo’nalish- shvetambarlar deb ataladi. Bu din aqidalari yozilgan eski matnlarni tiklash, ularga qonun tusini berish kerak deb hisoblaydilar. Shvetambarlar hayotga unchalik e’tibor bermaslikni targ’ib etsalar-da, bu dunyo lazzatlarining hammasidan ham voz kechmaydilar.

Jaynizm ta’limotiga ko’ra har bir insondan ma’lum bir axloqiy qoidalarni bajarish talab qilinadi. Jaynizmda har bir inson besh narsaga amal qilishi zarur bo’lib, bular, birinchi- zarar yetkazmaslik (axinsa), ikkinchi- rost so’zlash (satya), uchinchi- o’g’irlik qilmaslik (asteya), to’rtinchi- zino qilmaslik (braxmacharya), beshinchi- tamagirlik qilmaslik (aparigraha)lardan iboratdir. Mana shular insonning axloqiy mezonini tashkil qiladi. Bundan tashqari, u yana ikki asos- chin e’tiqod va to’g’ri bilim tamoyillariga ham amal qiladi. Jaynizmda rohiblar uchun bir muncha murakkab qoidalar ishlab chiqilgan.

Jaynizm ta’limoti bo’yicha borliqning iloh tomonidan yaratilganligi va uning borliq ustidan nazorat qilib turishi tan olinmaydi. Jaynizm ta’limotiga ko’ra, ruh abadiy mavjudot, olam esa azaliydir. Ruh moddiy tanani yengib o’tib, abadiy hayotga yetishishi mumkin. Jaynizm axinsa- zarar yetkazmaslik qoidasiga ko’proq e’tibor beriladi. Vardxamana Maxavira vedalarning ulug’vorligini inkor etib, veda urf-odatlariga hamda Braxmanlarning hukmronligiga qarshi chiqdi. U insonni ma’naviy yuksaklikka ko’taruvchi hayot qonunlarini, qat’iy e’tiqodli rohiblikni, ruhni ozodlikka olib chiquvchi nafsni tiyish fazilatini keng targ’ib qildi. Maxavira vafotidan so’ng ganadxara ya’ni “maktab boshliqlari” deb nomlangan uning 2 nafar shogirdi uning ta’limotini davom ettirdilar. Jaynizmning asosiy qoida va tamoyillari Maxavira tomonidan yozilgan bo’lib, ular 45 ta asardan iboratdir. Jaynizm qoimlari digambarlar jaynizmning asl holatini saqlab qolishga ko’proq ahamiyat berganlar. Diniy ta’limotning ikki oqimga bo’linishi har ikki oqimning o’ziga xos urf - odatlari, kiyinishi va boshqa jihatlarning shakllanishiga sabab bo’ldi.

Hozirgi paytda dunyoda bir yarim milliondan ortiq jaynistlar mavjud bo’lib, ular asosan, Hindistonning Rajputan, G’ujarat va bir qator janubiy mintaqalari, Magxya , Bxarat kabi shtatlarida yashaydilar.

Sikxizm. XV asr oxiri XVI asr boshlarida sof diniy islohot shaklida boshlangan sikxizm harakati XVII asrning ikkinchi yarmiga kelib faol harbiy an'analar bilan sug'orilgan siyosiy tashkilot sifatida shakllandi. Keyinchalik kichik harbiy diniy jamoa Ranjid Singx asos solgan kuchli davlatga aylandi.

Sikxizm diniga Panjobda guru ya'ni ustoz Nanak tomonidan asos solinib, unga ergashganlar o'zlarini sikxlar deb atashgan. Sikx so'zi shogird degan ma'noni anglatadi. Nanak 1469-1539 yillarda hayot kechirib, uning vafotidan so'ng sikxizm ta'limotini 9 ta guru rivojlantirgan. 9 - guru Govind Singx 1675-1708 yillarda muhim rol o'ynaydi. Sikxlar yagona ta'limotni targ'ib qilgan yagona guruni 10 qiyofada namoyon bo'ladi deb hisoblaganlar. Sikxizm Hindistondagi kuchli diniy islohotchilik harakati zaminida yuzaga kelib, bu diniy ta'limot talqinida hinduizmdagi Braxma, Vishnu, Shiva va Islomdagi Alloh bir ilohda mujassam bo'ladi. Sikxizm ta'limotiga ko'ra iloh- Yaratuvchi, Saqlovchi, Vayron qiluvchi ya'ni Braxma, Vishnu, Shivalardek sifatlarini o'zida mujassam etadi. Iloh qudratli va hukmdor bo'lib, uning tomonidan yaratilgan dunyo esa o'zgaruvchan va foniidir. Iloh esa abadiy bo'lib, u azalda ham, hozirda ham, kelajakda ham mustaqil ravishda mavjuddir. Azaliylik, vaqtdan tashqarida bo'lish, tug'ilmaganlik va o'lmaslik kabi sifatlar qudratli ilohning mohiyatini anglatadi. Hudoga bo'lgan muhabbat, ishonch, sadoqat yo'lini tutgan har bir inson Unga yetishishi va U bilan birlashib ketishi mumkin. Sikxizm harakati Ramanand, Gorakxnax, Chaytan'yax, Kabir va Vallabxachar'ya nomlari bilan bog'liq bo'lib, butun XVI asrni o'z ichiga oladi. Bu davrda hinduizm kabi sikxizmga ham islomning ta'siri kuchli bo'ldi.

Xudoga ibodat qilish, Sikxizm ta'limoti bo'yicha aslo dunyoviy hayotdan uzulishni, rohiblik yo'lini tutishni anglatmaydi, aksincha, hayotda faollikni, to'la mehnatni va oiladagi o'z vazifasini bajarishni anglatadi. Bu tamoyillarga amal qilish pirovard natijada tug'ilishlar zanjirining uzilishiga va insonning xudo bilan birlashib ketishiga olib keladi.

Hindistonda turli dinlar, turli madaniyatlar doimo bir - biriga ta'sir ko'rsatib, Nanak, Kabir kabi islohotchilar Hinduizmdan butparastlikdan tozalab, Islomga yaqinlashtirishga harakat qildilar. Tadqiqotchilar Sikxlar bir xudoga e'tiqod qiladi, deb hisoblaydilar. Sikxizm boshqa iloh va butlarga ibodat qilishni, hinduizmdan yirik ziyoratgohlariga borishni, folbinlik va sehr – joduga ishonishni ta'qiqlaydi hamda tug'ilish va o'lim bilan bog'liq bo'lgan poklash marosimlarini tan olmaydi. Sikxizm Hinduizmdan farqli ravishda kasta tabaqalanishini inkor etadi va braxmanlarning tug'ilish, o'lim va nikoh marosimlaridagi rahbarlik mavqeiga barham beradi.

Sikxizmda muqaddas kitobi Adigrantx ya'ni “ boshlang'ich kitob deb nomlanib, bu kitob beshinchi guru Arjun (1581-1606) tomonidan tuzilgan edi. Adigrantx shu bilan birgalikda Gururantx ya'ni “ Guru kitobi” yoki Grantx sohib ya'ni “ Soxibning kitobi” deb ham ataladi. Unga avval dastlabki besh guruning, keyinchalik esa boshqa gurularning madhiyalari kirgan. Adigrantx panjob tilida yozilgan bo'lib, hozirgi kunda Amritsardagi sikxlarning bosh ibodatxonasi bo'lgan “Oltin ibodatxona”da saqlanadi. Hozirgi paytda 17 millionga yaqin kishi Sikxizm diniga e'tiqod qilib, bu din Hindistondagi dinlarning kattaligi jihatidan to'rtinchisi hisoblanadi. 1960 yillarning o'rtalaridan boshlab mintaqaviy sikxizm harakatlari siyosiy tus olib, sikxlarning mustaqil yagona Xoliston davlatini tuzishga qaratildi. Bugungi kunda ham Hindiston siyosiy hayotida sikxizm omili katta o'rin tutadi.

Daosizm. Daosizm-aslida falsafiy ta'limot bo'lib, u er.av.IV-II asrlarda Xitoyda paydo bo'lib, uning asosida er.av.II asrda Daosizm dini shakllandi. Daosizm o'zining ilk ko'rinishida nazariyadan ko'ra ko'proq amaliyotga aloqador bo'lib, bu Shomonizm, folbinlik va tabiblik bilan bog'liq edi. Chunki qadimgi davolash uslublari falsafa, daosizm falsafasi bilan chambarchas bog'liq edi.

Daosizmda er.av. IV-III asrlarga kelib nazariy asarlar paydo bo'lib, bunday asarlarda ijtimoiy-siyosiy va axloqiy masalalarga asosiy e'tibor qaratilmaydi. Lekin shu bilan birgalikda daosizm vakillari ilk bor borliq, tabiat va koinot haqidagi tushunchalarni ishlab chiqa boshlagilar.

Daosizmning falsafiy tamoyillari "Dao Deszin" kitobida bayon etilgan bo'lib, bu asar o'tmishdagi yarim afsonaviy Xitoy donishmandi Lao-Szi qalamiga mansubdir. Lao -Szi so'zi "Keksa donishmand" degan ma'noni bildiradi.

Lao Szi ta'limotiga ko'ra, tabiat, jamiyat va butun borliqning asosi "Ulug' Dao" hisoblanadi. Dao- "yo'l", "Haqiqat", "Tartib" degan ma'nolarni bildiradi. Dao to'g'risidagi fikrlar daosizm va konfutsiychilik shakllanishidan oldin mavjud edi. Konfutsiy Daoni jamiyatda muayyan tartiblarni yaratuvchi samoviy qonunlar majmuasi deb hisoblagan. Konfutsiy ta'limoti bo'yicha Dao- ijtimoiy me'yorlar intizom va axloqning yig'indisidir. Daosizmga e'tiqod qiluvchilar uchun dao o'zgacha mazmunga ega bo'lib, dao bu eng avvalo umumiy tabiat qonuni va ibtido hamda intihoning o'zagidir. Umumiy mazmunda dao- butun borliq bo'lib, daoni hech kim yaratmagan, barcha narsalar daodan kelib chiqib va yana unga qaytadi. Dao hech kimga ko'rinmaydi va sezgi a'zolari uni ilg'ay olmaydii.

Daosizm dinining asosiy mohiyatlaridan biri bu dao va u bilan aloqador bo'lgan tabiat falsafasi hamda kosmogoniya masalalaridir. Ikkinchi asosiy masala bu- mavjudlik, hayot va o'limning nisbiyligi, shunga bog'liq holda uzoq yashash hamda abadiy hayotga erishish tushunchasidir. Eramizning birinchi asri- Xan davriga kelib, abadiy hayot masalasi daosizm olimlarining asosiy muammosiga aylandi. Uchinchi vaso'nggi masala uvey tamoyili bo'lib, mana shu daosizm falsafasidagi uch ta'limot Xan asriga kelib daosizm dinining shakllanishiga asos bo'ldi. Daosizm dinida uch xudo- Shan-Di, Lao-Szi hamda dunyoning yaratuvchisi Pant-Gu boshchiligida xudolar panteoni shakllangan. Shan-Di osmon xudosi, oliy ruh, qudrat va osmon o'gillari bo'lgan imperatorlarning otasi hisoblanadi. Daosizm dini o'z ibodatxonalariga, muqaddas kitoblariga, diniy xizmatni bajaruvchi ruhoniylariga ega. Bu dinning diniy tashkiloti ierarxiya tamoyiliga asoslangan bo'lib, ierarxiyaning boshida oliy ruhoniy Tyan- Shi ya'ni samoviy ustoz turadi. V asr boshiga kelib, daosizm diniy ta'limoti va marosimlari rasmiylashib, u davlat diniga aylandi. Biroq, uning zamirida juda ko'p sektalar vujudga kelib, ular ilohiyot masalalari, aqidalar, marosimlarni mustaqil talqin etish, dindorlar burchlariga turlicha qarashlar bilan bir-biridan farq qila boshladi.

Eramizning II asrida daosizm dinida "Taypindao" ya'ni "Buyuk tenglik ta'limoti" sektasi vujudga kelib, uning asoschisi Chjan Szue hisoblanadi. U xalq orasida sehr jodu orqali barcha kasalliklarni tuzatuvchi hamda kishi umrini uzaytiruvchi shaxs sifatida shuhrat topdi. "Taypindao" sektasi ta'limoti "taypintsin" kitobiga asoslanadi. "Taypindao" sektasi bilan birga yana bir "udoumidao" ya'ni "besh dona guruch ta'limoti" sektasi ham mavjud bo'lib, bu sektaning asoschisi Chjan Dao Lin daosizm ibodatxonasini tashkil etishda katta xizmat ko'rsatgan. "Udoumidao" sektasi qadimgi Xitoy jamiyatida katta ta'sir doiraga ega bo'lgan.

Daosizm birinchi mingyillikda Buddizm va Konfutsiychilik bilan raqobatlashib kelib, VI asrga kelib Daosizm Konfutsiychilikdan keyingi ikkinchi o'rinni egalladi. XIII asrdan boshlab daosizm ta'limoti o'zining avvalgimavqeini yo'qota boshladi. XX asr boshlariga kelib Xitoyda turli Daosizm sektalariga qarshi kurash boshlandi.

Konfutsiychilik. Qadimgi Xitoyda Lao-Szi falsafiy ta'limoti bilan deyarli bir davrda Kun-Szi (Konfutsiy- er.av.551-479) ning falsafiy ta'limoti ham paydo bo'ldi. Konfutsiy-Qadimgi Xitoy faylasufi va pedagogi, konfutsiychilikning asoschisidir. Konfutsiyning falsafiy va axloqiy g'oyalari markazida inson, uning aqliy va ma'naviy qiyofasi, olamdagi hamda jamiyatdagi o'rni, vazifasi muammolari turadi.

Konfutsiy komil inson ya'ni Szyun-Szi haqidagi g'oyani yaratadi. Szyun-Szi, ya'ni yuksak ma'naviyatli inson ikki asosiy xususiyatga ega bo'lishi zarur bo'lib, bular insoniylik va mas'uliyatni his qilishdir. Komil inson eng avvalo, ishonch va fidoiy bo'lishi lozimdir.

Konfutsiychilikning ilk ko'rinishida axloq masalasi birinchi o'ringa qo'yilgan, diniy e'tiqod esa ikkinchi darajali sanalgan.

Konfutsiychilikdagi yana bir ta'limot- "Syao" bo'lib, u inson o'z ota-onasiga munosib bo'lishi haqidagi g'oyani o'zida mujassam qiladi. Konfutsiy inson uchun Syaodan muhimroq narsa yo'q, U "Syao va Di ya'ni ukaning akaga, kichiklarning kattalarga hurmati insoniylikning asosidir", degan fikrni bayon qiladi. Syao ta'limotining "Li qonunlari"ga ko'ra, farzand ota-ona hayotlik chog'ida mutlaqo ularning ixtiyoridadir. Syao ta'limoti asrlar mobaynida Xitoy madaniyati, axloqiy me'yorlariga katta ta'sir o'tkazib keldi.

Konfutsiychilik Xitoyda oila masalalariga hal qiluvchi ta'sir o'tkazdi. Konfutsiy ideal, oliy inson, asl, mard kishi konsepsiyasini ishlab chiqqan bo'lib, bu konsepsiyaga ko'ra, odamlar ijtimoiy kelib chiqishi yoki jamiyatdagi mavqei orqali emas, balki odamiylik, adolatgo'ylik, haqqo'ylik, samimiyat, farzandlik izzat-hurmati kabi yuksak ma'naviy fazilatlariga erishishi tufayli yuksak kamolotga yetishuvi mumkin.

Konfutsiyning falsafiy ta'limoti keyinchalik Xitoyda hukmron dinlarning biriga aylandi va Konfutsiychilik dinining asosi bo'ldi. Konfutsiychilikning manbai - Konfutsiy izdoshlari yozgan "Lung-Yuy" (Suhbatlar va mulohazalar, er.av. VI asr) kitobidir.

Konfutsiychilikning maqsadi - xalqni mavjud tartib qoidalarini hurmat qilish ruhida tarbiyalashdir. Bu din aqidasiga ko'ra, jamiyatda osmondan yuborilgan "Jeng" ya'ni Insonparvarlik qonuni amal qiladi. Bu qonunni o'rganib olish uchun inson "Li"ga ya'ni ijtimoiy axloq normalariga, qoidalariga, an'anaviy marosimlariga amal qilishi, o'zining jamiyatdagi darajasiga qarab ish tutishi zarur. Konfutsiychilik belgilangan diniy tartiblarga qattiq amal qilishni talab etadi.

Konfutsiychilikda har bir oilaning o'z ibodatxonasi bo'lib, har bir oila o'z ibodatxonasiga ajdodlarining timsoli bo'lgan "Chju" tasvirini joylashtiradi, uning yoniga qurbonliklarni qo'yadi va diniy marosimlarni ijro etadi.

Konfutsiychilikning bosh xudosi- osmon xudosi edi. Keyinchalik Konfutsiyning o'zi ham ilohiylashtirilgan. Uning sharafiga hatto imperatorning o'zi ham diniy marosimlarni bajo keltirardi. Konfutsiychilik diniga ko'ra imperatorning o'zi oliy hudoning yerdagi vakili bo'lib hisoblanardi. Shu bilan birgalikda Konfutsiychilikda ajdodlar ruhiga sig'inish oliy darajaga ko'tarilgan edi.

Konfutsiychilik dinining "Si-Shu" (To'rt kitob va "U-Szin" (Besh kitob) degan muqaddas kitoblari bor. "U-Szin" ya'ni besh kitob quyidagi kitoblardan iboratdir:

1. "U-Szin" (o'zgarishlar kitobi, sehrgarlik, duolar to'plami);
2. "Shu-Szin" (qadimgi tarix, afsonaviy imperatorlar tarixi);
3. "Shi-Szin" (qo'shiq aytish kitobi, qadimgi poeziya to'plami);
4. "Li-Szi" (marosimlar kitobi);

5. “Chun-Szyu” (bahor va kuz kitobi).

To'rt kitob esa quyidagi kitoblardan iboratdir:

1. “Da-Syue” (buyuk ta'limot, insonning o'zini-o'zi takomillashtiruv haqidagi kitob);
2. “Chjun-Yun” (oraliq, o'rtaliq haqidagi kitob);
3. “Lun-Yuy” (Xikmatli so'zlar kitobi);
4. “Men-Szi” (Konfutsiyning eng qadimgi shogirdlaridan biri Men-Szining ta'limoti).

Konfutsiychilik dinining “Si-Shu” (to'rt kitob) va “U-Szin” (besh kitob) degan kitoblarining hammasini ham diniy kitob deb bo'lmaydi. Yuqoriga ko'rsatib o'tilganidek, ularning ichida dinga aloqasi bo'lmagan kitoblar ham mavjud.

Konfutsiychilik dinining o'ziga xos, uni boshqa dinlardan ajratib turadigan eng muhim belgisi - bu dinda ruhoniylar qatlaminig yo'qligidir. Bu dinning marosimlarini ota o'z o'g'liga o'rgatishi kerak bo'lgan.

Xitoyda imperator konfutsiychilik asoslarini yaxshi bilgan amaldorlar orqali davlat ishlarini boshqarib kelgan. Shuning uchun Xitoyda fuqarolarni davlat amaldorligi mansabiga qabul qilishda qo'yiladigan talablardan biri davlat amaldorligi mansabiga da'vogarning konfutsiychilik dini marosimlarini qanchalik bilishi va bajara olishini aniqlashdan iborat bo'lgan.

Konfutsiy nomi o'rta asrlarga kelib ilohiylashtirildi. Xitoyning deyarli barcha shaharlarida Konfutsiyga atab qurilgan ibodatxonalar paydo bo'ldi. Konfutsiy yashab vafot etgan joy - Suyfudagi ibodatxonaga Konfutsiy haykali qo'yilib, uning yoniga uning shogirdlarining nomi bitilgan lavha va haykallar qo'yilgan.

Sintoizm. Sintoizm dini Qadimgi Yaponiyada vujudga kelgan milliy davlat dini bo'lib, sinto so'zi “Xudolar yo'li” degan ma'noni bildiradi. Sintoizm eramizning VI-VII asrlarida shakllangan bo'lib, yaponlarning eski an'anaviy dini Yaponiyaga buddaviylik tarqalib, yoyila boshlaganiga qadar aniq bir nom bilan nomlanmagan edi. Yaponiyaga buddaviylik tarqala boshlaganidan so'ng yaponlarning dini kami-no-miti (so'zma-so'z tarjima qilinganda “xudo yo'li” yaponchada sinto, xitoychada shinto “yo'l” degan ma'noni anglatadi) deb atala boshlandi. Shunday qilib sintoizm- “Xudo yo'li” degan ma'noni anglatadi.

Sintoizm ta'limotiga ko'ra, mikado (imperator)- osmon ruhlarining davomchisidir. Har bir yapon kishisi ikkinchi darajali ruhlar ya'ni kamaning vorisidir. Yaponlar kamaga ajdodlar va qahramonlarning ruhlari deb e'tiqod qiladilar. Xudojo'y o'lganidan keyin o'zining ham o'sha kamalardan biri bo'lishiga ishonadi.

Yaponiyada buddaviylar ibodatxonasiga taqlid qilingan holda sintoizm dinining ibodatxonalari ham qurila boshlangan. Sintoistlar xudolarning tasvirini yasay boshladilar. Buddaviylar jasadni yoqish marosimini kiritdilar. Bunga qadar yaponiyada murda ko'milar edi. Shunday qilib buddaviylik va sintoizm dinlarining yaqinlashuvi ro'y bera boshladi. Buddaviylar ibodatxonalari ichkarisida sintoistlar hudolari uchun burchak tashkil etilib, bu xudolar kami deb atalar edi.

Sintoizm buddaviylikka nisbatan o'z aqidalarining soddaligi bilan farq qiladi.

Sintoizm ta'limotining asosini- imperator hokimiyatining ilohiyligi to'g'risidagi aqida tashkil etadi.

Imperator ya'ni mikado xudo Amaterasuning avlodi bo'lib, shuning uchun ham, har bir yapon o'z imperatorining muqaddas hohishi oldida bosh egishga majbur. Sintoizmga e'tiqod qiluvchilar uchun imperator saroyi hamda vafot etgan imperatorning qabri muqaddas bo'lib hisoblanadi.

Sintoizmda "oliy iloh" tushunchasi mavjud bo'lmay u ajdodlar ruhiga va tabiatga sig'inishni o'rgatadi.

Sintoizm haqidagi ma'lumotlar "Kodziki" ("Qadimiy yozuvlar") va "Nixongi" ("Yaponiya annallari") kabi manbalarda uchraydi, Kodziki- bu Sintoizmning muqaddas kitobidir. Kodzikida qon-qabilaviy birlik va asosiy hokimiyat g'oyasi bayon qilingan.

Yapon yozuvlarida ta'kidlanishicha, olamda avval tartibsizlik ya'ni xaos hukmronlik qilgan bo'lib, undan so'ng yer osmondan ajralib chiqqan hamda ayol va erkak jinsi paydo bo'lgan. Dastlab ayol xudo Izdanami, erkak xudo Izdanagi paydo bo'lib, ulardan ayol jinsidagi quyosh ilohi Amaterasu, erkak jinsidagi oy ilohi Sukiyomi, shamol va suv ilohi Susanoo tug'iladi. Amaterasu g'alaba qilib osmonda qoladi, Susanoo esa yerdagi Idzumo mamlakatiga quviladi. Susanoning o'g'li Okuninusi Idzumo hokimi bo'lganidan so'ng Amaterasu bu holatga chidab tura olmay, Okuninusi hokimiyatini o'z nabirasi Ninigiga topshirishga majbur qiladi. Ninigi osmondan tushib, Idzumo davlati rahbarligini qabul qilgandan so'ng unga hokimiyatning ramzi sifatida uch muqaddas narsa-ilohiylik timsoli bo'lgan ko'zgu, qudrat timsoli bo'lgan qilich va sadoqat hamda fidoiylilik timsoli bo'lgan yashma topshiriladi. Ninigidan Dzimmutenno kelib chiqib, Dzimmutenno Mikado -yapon imperatorlari sulolasining birinchi vakili, Yaponiyaning birinchi afsonaviy imperatori bo'lib hisoblanadi. Qadimgi zamonlardan beri ko'zgu, qilich, yashma yapon imperatorlari xonadonining belgisi bo'lib qolgan.

Imperator-mikado o'zining ilohiy kelib chiqishiga ko'ra butun xalq bilan qon-qardosh bo'lib, u bir oiladan iborat millatning boshlig'idir. Yaponiyada 300 yildan ortiq hukmronlik qilgan syogunlar ham o'zlarini mikado namoyondalari deb ataganlar.

V-VI asrlarda imperator-mikado sinto ibodatxonalari faoliyatini o'z nazoratiga oladi. VIII asr boshlarida imperator saroyida sinto ishlari bilan shug'ullanuvchi maxsus bo'lim tashkil etiladi. X asrga kelib sinto ilohlarining ro'yhati tuzilib dastlab ularning soni 3132 ta edi, keyinchalik esa bu son yanada ortadi.

Yaponiyada 1868 yil Meydzi qayta qurishidan keyin sintoizm ruhoniylari o'qitadigan ta'lim tizimini yaratishga harakat qildilar va kannusi deb ataladigan bunday ruhoniylilik lavozimi odatda meros sifatida o'tar edi. Yaponiyada 1946 yilda konstitutsiya yo'li bilan din davlatdan ajratildi.

Sintoizmda Motsuri deb nomlangan bayram bo'lib, bu bayram dehqonchilik ishlarining boshlanishi, hosilning yig'ib olinishi, shuningdek, ibodatxona yoki mahalliy hudoga bag'ishlangan sana bilan bog'liq bo'lib, yiliga ba'zi ibodatxonalarda bir, ba'zilarida ikki marta nishonlanadi. Motsuri bayramida juda ko'p odam to'planib, ular katta tantanalar bilan o'yin - kulgu qiladilar.

Sintoizm xudolari panteonlari qatoridan Yaponiya imperatorlari ham joy olgan bo'lib, bu dinda muqaddas joylar, ayniqsa tog'lar, Fudziyama vulqoni alohida e'zozlanadi.

Sintoizm ozodalik masalasiga nihoyatda katta e'tibor qaratiladi. Biror bir toza bo'lmagan narsa aslo muqaddas joylarga tashlanmasligi qattiq talab qilinadi. Sintoizmda toza bo'lmagan ishga

qo'lgan odam albatta poklanish marosimlarini bajarmog'i lozim bo'lib, har yili 2 marotaba – 30 iyunda va 31 dekabrda Yaponiyada umumxalq poklanish tadbirlari o'tkaziladi.

Yahudiylar. Yahudiylarning milliy davlat dini bo'lgan Iudaizm dunyoda keng tarqalgan bo'lib, u er.av.XIII asrda vujudga kelib bizga qadar jiddiy o'zgarishsiz yetib kela olgan dindir. Yahudiylar er.av.2000 yillarning oxirlarida Falastinda vujudga kelgan yakkahudolik g'oyasini targ'ib qilgan din bo'lib, u faqatgina yahudiy xalqiga xosdir. Iudaizm dinining marosimlari nihoyatda ko'p bo'lib, ularni bajarish qattiq nazoratga olingan. Shu bilan birgalikda bu dinda yahudiylar mumtozligi g'oyasi zo'r berib targ'ib etiladi. Yahudiylarning boshqa millat vakillari bilan nikohga kirishi man qilinadi.

Er.av. XIII asrda yahudiylar Falastinni bosib olganlaridan so'ng Iudaizmning ilk ya'ni Falastin davri boshlanadi. Falastinda Yahudiylar davlati tashkil topishi bilan dastlabki podsholar sulolasiga asos solgan Iuda qabilasining xudosi Yaxvega sig'inishi joriy etildi. Yaxve- butun olamni boshqaruvchi yagona xudo deb e'lon qilindi. Avval u tog'lar, chaqmoq, momaqaldiriq, olov va suv xudosi edi. Er. av. X asrdan boshlab Iudaizm dini umumdavlat diniga aylandi.

Yahudiylar ta'limoti to'rt asosga tayanadi:

1. Olamlarni yaratuvchi yagona xudo- Yaxvega imon keltirish. Yaxve so'zi "rabb, parvardigor" degan ma'noni bildiradi.

2. Yahudiylar yer yuzidagi xalqlarning "eng mumtozi" va u "dunyoda berilajak in'omlarning eng haqlisi" ekanligi

3. Messiya- xaloskorning kelishi haqida. Unga ko'ra, oxirzamonda Yaxve yahudiylar orasidan bir xaloskorni chiqaradi va u quyidagi vazifalarni bajaradi:

1) Dunyoni isloh qilgan holda qaytadan quradi;

2) Butun yahudilarni Sinion atrofida to'playdi;

3) Ularning barcha dushmanlarini jazolaydi;

4) Oxirat kuniga ishonish. Iudaizmdagi oxirat haqidagi tasavvurlar, asosan, Talmudda bayon etilgan bo'lib, unga ko'ra, Yaxvega chin e'tiqod qilganlar oxiratda mukofotlanadilar. Aksincha uning qonunlarini buzganlar shafqatsiz jazo oladilar.

Iudaizm dinida Muso, Navin, Ibrohim, Ishoq kabi payg'ambarlar mavjud bo'lib, diniy ta'limotlarga ko'ra xudo Yaxve Iudaizmning barcha qonun-qoidalarini Muso orqali odamlarga tarqatgan. Muso payg'ambar Tur tog'ida uchrashganda Yagona Xudo tomonidan unga 10 ta lavha tushirilgan deyiladi yahudiylar dinida, ushbu lavhalarda mazkur din asosini tashkil etgan 10 ta nasihat bayon etilgan bo'lib, bu nasihatlar Tavrotning "Ikkinchi qonun" kitobidan o'rin olgan bo'lib, Yahudiylar ularga qat'iy rioya qilishlari shart bo'lib hisoblanadi. Bu 10 ta nasihat quyidagilardan iboratdir:

1. Yaxvedan boshqani iloh deb bilmaslik;

2. But, sanam va rasmlarga sig'inmaslik;

3. Bekordan-bekorga Xudo nomi bilan qasam ichmaslik;

4. Shanba kunini hurmat qilish va uni Xudo uchun bag'ishlash;
5. Ota-onani hurmat qilish;
6. Nohaq odam o'ldirmaslik;
7. Zino qilmaslik;
8. O'g'irlik qilmaslik;
9. Yolg'on guvohlik bermaslik;
10. Yaqinlarning narsalariga ko'z olaytirmaslik.

Yahudiylarning muqaddas diniy manbalaridan hisoblangan Talmudda yahudiylik marosimlari tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, unda yahudiylar amal qilishiva bajarishi lozim bo'lgan 248 ta buyruq va 365 ta taqiq ko'rsatib o'tilgan. Bu buyruq va taqiqqlar yahudiylarning ovqatlanishi, kiyinishi, ozodaligi, kun tartibi, ibodatlari, marosimlar vabayramlariga taalluqli masalalarni o'z ichiga olib, har bir yahudiy ushbu buyruq va taqiqqlarga umri davomida rioya etishi talab etiladi. Har bir yahudiy farzandi tug'ilganining sakkizinchi kuni xatna qilinadi. Yahudiylar to'ng'iz go'shtini xarom deb hisoblaydilar, go'shtni o'zlarining maxsus qassoblari- shoyixet tomonidan diniy qoidalarga muvofiq so'yilgandan keyingina iste'mol qiladilar. Yahudiylarning boshlari doimo, hatto uyquda ham yopilgan bo'lishi kerak. Ibodat paytida Yahudiylar maxsus ibodat choyshabi "tales"ni yelkalariga tashlab olib, uning chekkalarida olti yuz o'n uchta tugun tugulgan bo'lishi kerak. Bu narsa yahudiy tomonidan yuqorida ko'rsatib o'tilgan "248 ta buyruq va 365 ta taqiqqa amal qilishni yelkamga olaman" degan ma'noni anglatadi.

Iudaizm dinining o'z muqaddas kitoblari mavjud bo'lib, bular Tavrot va Talmuddir. Bibliyaning birinchi qismi "Qadimgi Ahd" deb atalib, Qadimgi Ahd "Musoning besh kitobi" deb nomlangan Tavrotni tashkil etadi. Musoga tegishli bo'lgan bu besh kitob quyidagi kitoblarga bo'linadi:

- 1). "Borliq" yoki "Ibtido";
- 2). "Chiqish";
- 3). "Levit";
- 4). "Sonlar;"
- 5). "Ikkinchi qonun".

1). "Borliq kitobi" - bu olamning va insonlarning Xudo tomonidan yaratilganligi, jannatdagi dastlabki odamlarning hayoti, ularning gunoh ishlar qilganligi va shu tufayli jannatdan haydalgani, insoniyatning ko'payishi, qadimgi tarixi, butun dunyo suv toshqini, undan Nuh oilasining qutulib qolishi, yahudiy xalqi urug' boshliqlari Ibrohim, Ishoq, Yaqub, Yusuf hayoti, yahudiylarning Misrga ko'chib borishi haqidagi kitobdir.

2). "Chiqish" kitobi esa- yahudiy qonunshunosi Musoning hayoti, faoliyati, uning yahudiylarni misrliklar asirligidan ozod etishi, shuningdek, xudoning mashhur 10 vasiyati haqidagi rivoyatlardan iborat.

3).“Sonlar” esa- qonunchilik va yahudiylarning Misrdan olib chiqib ketilgan davrdan to Falastin bosib olinguniga qadar tarixiga oid kitob.

4).“Loviy” –oilaiy hayot haqidagi kitob.

5).“Ikkinchi qonun” kitobi esa- bu diniy qonunlar kitobidir.

“Tavrot” Iudaizm diniy ta’limotining asosi va ilohiylashtirilgan manbaidir.

Milodning boshlarida yahudiylarning turli yurtlarga tarqalib ketishi ya’ni diaspora davrida Tavrotni asrlar davomida talqin va qayta talqin etish natijasida Iudaizmning yana bir muqaddas kitobi “Talmud” (yahudiycha- o’rganish) shakllanib, unda Iudaizmning aqida va marosimlari batafsil yoritilgan.

Iudaizmda diniy ta’lim va tarbiya berish katta o’rin egallaydi. Bolalarga 5-6 yoshlaridanoq diniy ta’lim va tarbiya beriladi. Bolalar ta’lim va tarbiya davomida “Tavrot” va “Talmud” ning asosiy aqidalarini yod olishlari shart.

Talmud (Qadimgi yahudiycha “lameyd”-o’rganish) er.av. IV asrlarda vujudga kelib yozma Tora (Tavrot)dan farqli ravishda avloddan – avlodga og’zaki ravishda o’tib borgan. Shuning uchun Tora (Tavrot) “yozma qonun”, Talmud esa “og’zaki qonun” deb yuritilgan.

Yahudiylarning Talmud qatoriga kiruvchi yana bir diniy manbai Midrashlar ya’ni tavsir hisoblanib, ular yahudiy ravvinlarining Toraga yozgan sharx- tafsirlari hisoblanadi. Ular midrashlardan ko’proq sinagoga targ’ibotlarida foydalanadilar.Iudaizm ruhoniylari ravvinlar (xazrat, janob) deb ataladi.Yahudiylar o’z dinlarini saqlash hamda ibodatlarni olib borish maqsadida sinagog ya’ni ibodat uylarini vujudga keltiradilar.Sinagoglar o’z mulki, daromadlariga ega bo’lib, ular hayr-ehson ishlari bilan ham shug’ullanadilar.Bu hol yahudiylar jamoasi a’zolari orasida sinagoglar mavqeining mustahkamlanishiga, obro’sining oshishiga olib keldi.

Yahudiylarda saduqiylar, farziylar va esseylar degan oqimlar mavjud bo’lib, saduqiylar diniy ishlarda faqat qonun ya’ni Musoning besh kitobini tan olganlar.

Farziy nomi qadimgi yahudiy tilidagi “tushuntirish” , “ajratib ko’rsatish” degan ma’noni bildirib, farziylar Musoning Qonunini sharxlaganlar va oddiy odamlarga o’rgatganlar. Esseylar yahudiy sahrolariga chiqib ketib Xudo tomonidan yuboriladigan xaloskor- Messiyaning kelishi va Quddusni tozalashini kutib, ibodat qilib yashovchi jamoadir.Saduqiylar, Farziylar va esseylar yahudiylardagi qadimgi oqimlar bo’lsa, zamonaviy oqimlarga esa sionizm kiradi. Sionizm nomi Quddusdagi Sion tog’i bilan bog’liq bo’lib, bu oqim avstriyalik yahudiy jurnalist T. Xerslning (1860-1904) nemis tilidagi “Yahudiylar davlati” risolasi asosida XIX asr oxirlarida tuzilgan. Sionizm ilk davrda ravvinlar tomonidan qo’llab-quvvatlangan bo’lib, bu oqimning maqsadi- yahudiylarning xudo tomonidan tanlangan mumtoz xalq ekanligini targ’ib etishdir. Yahudiylar o’zlari yashab turgan turli o’lkalardan chiqib Falastinda milliy birlashishlari targ’ib etiladi. Sionizm “ Jahon yahudiy millati”- “Oliy millat” kabi g’oyalarni ilgari suradi. Sionizm siyosiy oqim bo’lib, maqsadiga erishish yo’lida yahudiy dinidan foydalanadi.

Yahudiy ilohiyotchilari orasida yahudiy dinini isloh qilish va uni o’rta asrlardagi holatiga qaytarish tarafdorlari ko’pchilikni tashkil qiladi.

Yahudiylar o’zlarining Yaxvega nisbatan sodiq ekanliklarini isbotlash uchun bir necha rasm-rusumlarni ijro etadilar. Ular yillik va kunlik ibodatlardan, bayramlardan, marosimlardan iborat.

Ibodot uyda ham sinagogada ham birday olib boriladi. Sinagogada ayollar erkaklardan alohida ibodat qiladilar. Ibodat xor shaklida olib boriladi.

Yahudiylarning yillik bayramlari ichida eng e'tiborlisi Peysah (Pasxa) bayramidir. Yahudiylar Pasxa bayramidan keyingi 7 kun davomida tuzsiz, xamirturushsiz patir- matsa tanovul etadilar.

Pasxadan keyingi 50 - kuni yahudiylar Shabuot yoki Shevuot bayramini nishonlaydilar. Bu bayram dastlab dehqonchilik bayrami bo'lib, keyinchalik Sinay tog'ida Musoga Xudo tomonidan Toraning berilishini nishonlab o'tkaziladigan bayramga aylangan. U yahudiylar kalendari bo'yicha Sivona oyining 6- va 7 – kunlari nishonlanadi.

Kuzda yahudiy kalendaridagi Tishri oyining 1- va 2- kunlari yangi yil bayrami- Rosh-Ashona nishonlanadi. Bu bayram yahudiylar uchun poklanish bayrami hisoblanadi.

Tishri oyining 9-kuni gunohlardan poklanish bayrami- Yom-Kipur nishonlanadi. Rosh-Ashona va Yom-Kipur bayramlari o'rtasida yahudiylar ro'za tutadilar. Bahorda yahudiylarda Purim (Qur'a) bayrami nishonlanib, bu bayram yahudiylarning qadimgi fors podshosi Homon zulmidan qutilganliklari sharafiga nishonlanadi.

Yahudiylar yagona millatga xos din bo'lganligi sababli ular qayerda bo'lmasin muqaddas kitobi va e'tiqodi yagona bo'lib qolaverdi.

Hozirgi paytda Toshkent, Buxoro va Samarqand shaharlarida Buxorolik hamda Ashkenazi (yevropalik) yahudiylarining milliy madaniy markazlari, shuningdek sinagogalari faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Yahudiy jamoalari mamlakatning 3 ta ma'muriy hududida o'zining ibodatxonalariga ega bo'lib, jami 8 ta sinagoga ro'yhatdan o'tgan.

Zardushtiylik. Zardushtiylik er.av. II – I mingyilliklarda Markaziy Osiyoda vujudga kelgan dindir. Zardushtiylik vahiy orqali e'lon qilingan jahondagi dinlarning eng qadimgisi bo'lib, u insoniyatga boshqa barcha dinlarga nisbatdan bevosita va bilvosita eng ko'p ta'sir o'tkazgan dindir. Insoniyat tarixida har bir kishi ustidan ilohiy hukm amalga oshirilishi, jannat va jahannam, qiyomat-qoyim unda tanalarning qayta tirilishi, tana va ruh qayta birlashib mangu yashashi haqida birinchi bor Zardushtiylik doirasida fikr yuritildi. Keyingi asrlarda bu g'oyalar yahudiylar, xristianlik va boshqa dinlar tarafidan o'zlashtirildi. Zardushtiylik dini payg'ambar Zardusht nomiga nisbat berilib, shartli ravishda shunday atab kelinadi. Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi hisoblangan "Avesto"da bu din "Mazdayasna" dini deb atalgan. Bu so'zni "Mazdaga sig'inmoq" deb tarjima qilish mumkin bo'lib, "Mazda" so'zi "Donish, donishmand, oqil" degan ma'nolarni bildiradi.

Zardushtiylik dini yana "Behdin" ya'ni "Eng yaxshi din" deb ulug'langan. Uning ta'limotiga ko'ra, barcha ezgu borliq Mazdaning irodasi bilan yaratilgan bo'lib, "Mazda" so'zi oldiga ulug'lash ma'nosini anglatuvchi "Axura" qo'shilib, Zardushtiylikning ilohi- Axura-Mazda nomi paydo bo'lgan. Axura-Mazda "Janob Mazda" yoki "Iloh" degan ma'nolarni bildiradi.

Zardusht nomi tadqiqotlarda Zaratushtira, Zardust, Zoroastr ko'rinishlarida ham ishlatiladi. Zardusht 40 yoshida avvalgi ko'pxudochilik diniy tasavvurlariga hamda tabiiy hodisalariga sig'inish e'tiqodlariga qarshi chiqib, yakkaxudochilikka asoslangan kitobiy din- Zardushtiylik dinini yaratdi.

Zardusht yashagan zamon ibtidoiy munosabatlar o'rnini mulkiy munosabatlar, qadimiy davlatchilik asoslari egallayotgan, jamiyatda ijtimoiy guruhlar hamda qatlamlar shakllangan, ko'chmanchi chorvador va o'troq ziroatkor qabilalar o'rtasidagi munosabatlar bir muncha keskinlashgan edi. Bu murakkab davrda o'lkaning turli qabilalarini birlashtirish va ularni ilk markazlashgan davlatchilik g'oyasi atrofida uyushtirish zaruriyati ham tug'ilgan edi.

Zardushtiylik dini vujudga kelgan davr Janubi-G'arbiy va Markaziy Osiyoda ko'chmanchilikka asoslangan turmush tarsi inqirozga uchrayotgan, o'troq turmush tarzi qaror topayotgan, sug'oriladigan dehqonchilik hamda chorvachilik, hunarmandchilik keng taraqqiy etayotgan, yangi shaharlar, qishloqlar bunyod bo'layotgan, o'troqlik turmush tarzi har jihatdan afzal ko'rinishi bilan ijtimoiy hayotga keng tadbiiq qilinayotgan davr edi. Shunday turmush tarzini barqaror qilish, odamlarga, xalqlarga kulfat keltirayotgan ko'chmanchilikka qarshi kurash hayotiy ehtiyojga aylangan edi. Bu ehtiyojni hammadan ko'p anglab yetgan donishmand Zardusht bo'ldi. U inqirozdan qutulish, xalqlar, qabilalarni birlashtirib, yagona davlatchilikka erishishning birdan-bir yo'li-bu yakkaxudolikka o'tishdan iborat deb bildi va butun ongli faoliyatini, hayotini ana shu muqaddas ishga bag'ishladi.

Zardushtiylik Markaziy Osiyoda ibtidoiy davrda mavjud bo'lgan tabiat kuchlarini ilohiylashtiruvchi e'tiqodlarga nisbatan monoteistik ta'limotdir. U behuda qon to'kuvchi qurbonliklar, harbiy to'qnashuvlar, bosqinchilik urushlarini qoralab, o'troq, osoyishta hayot kechirishga, mehnatga, dehqonchilik, chorvachilik bilan shug'ullanishga da'vat etadi. Zardushtiylik dinida qo'riq yer ochib, uni bog'u-roq'ga aylantirgan odam iloh rahmatiga uchraydi. Zardusht insonlarni tinch – totuv yashashga, halol mehnat qilishga da'vat etadi.

Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra olamning negizi qarama-qarshiliklar asosiga qurilgan bo'lib, yaxshilik va yomonlik, yorug'lik va qorong'ulik, hayot va o'lim o'rtasida abadiy kurash davom etadi. Barcha yaxshiliklarni

Axura-Mazda va barcha yomonliklarni Anxramaynyu (yoki Axriman) ifodalaydi.

Axura-Mazda insonlarga ezgu ishlarni bayon etib, ularga amal qilishni buyuradi, yomon ishlardan saqlanishga chaqiradi.

Zardushtiylik iymoni 3 narsaga asoslanadi: fikrlarning sofligi, so'zning sobitligi, amallarning insoniyligi. Har bir zardushtiy kuniga 5 marta yuvib, poklanib, quyoshga qarab, uni olqishlab sig'inishi shart. Zardushtiylik ibodatxonalarida doimiy ravishda olov yonib turib, bu dinda dunyodagi 4 unsur- suv, olov, yer va havo ulug'lanadi.

Axura-Mazdaning Zardusht orqali vahiy qilingan ilohiy xabarlar Turon va Eron zamini xalqlari orasida asrlar davomida turli diniy marosimlar, duolar, madhlar, sur'a va oyatlar sifatida yig'ila boshlagan. Bular Zardushtning o'limidan keyin muqaddas kitobga to'plangan va bu kitob "Avesto" deb atalgan (O'rnatilgan, qat'iy qilib belgilangan qonun-qoidalar). "Avesto" turlicha Apastak, Ovisto, Ovusto, Abisto, Avasto kabi shakllarda ham ishlatib kelingan. "Avesto" Markaziy Osiyo, Eron, Ozarbayjon xalqlarining Islomgacha bo'lgan davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, diniy qarashlari, olam to'g'risidagi tasavvurlari, urf-odatlar, ma'naviy madaniyatini o'rganishda muhim va yagona manbadir.

Bu qadimiy yozma manba bizgacha to'liq holda yetib kelmagan. Er.av.IV asrda Aleksandr Makedonskiy yurishlari davrida 12 ming qoramol terisi, pergamentga yozilgan "Avesto"ning zarur joylari tarjima qilinib Yunonistonga yuboriladi. "Avesto"ning 5 dan 3 qismi kuydirilib, yo'q qilib yuboriladi. Beruniyning fikricha "Avesto" dastlab 30 "nask" bo'lib, bir qismi yo'q qilib yuborilganidan so'ng 12 "nask"dan iborat bo'lgan qismi saqlanib qoladi. Eramizning I yoki

II asrlarida Arshakiylar davrida “Avesto” qismlarini to’plash boshlanadi. Keyinchalik Sosoniylardan Ardasher (227-243) davrida, undan keyin Shopur (243-273) davrida astrologiya, tabobat, riyoziyot va falsafaga oid qismlari yozib olinib, hamma qismlari tartibga keltirilgan, so’ng bu asosiy matn to’ldirib borilgan. “Avesto”ning ana shu to’ldirilgan nusxasining 2 to’liq qo’lyozmasi Hindistonda saqlanadi. Biri Mumbayda zardushtiylarning madaniy markazi bo’lgan Koma nomidagi institutda, ikkinchisi Kalkuttadagi davlat kutubxonasida. “Avesto” zardushtiylik dinining muqaddas manbasi sifatida 4 kitob shaklida bizning davrgacha yetib kelgan. “Avesto”ning saqlanib qolgan 4 ta kitobidan birinchisining nomi “ Videvdat” ya’ni “Devlarga qarshi qonun” deb nomlanadi. “Videvdat” “Avesto”ning saqlanib qolgan kitoblari orasida eng mukammali hisoblanadi. U 22 bobdan iborat bo’lib, bu boblar fragard deb nomlangan.

Ikkinchi kitob “Yasna” deb atalib, “Avesto”ning e’tiborli bo’limi sanaladi. Yasno- yaz o’zagidan tashkil topgan bo’lib, “Sajda, toping , namoz” ma’nolarini ifodalaydi. Yasna 72 bobdan iborat bo’lgan. Yasnaning boblari Ha, Haitiy deb atalgan bo’lib, har bir Ha zarur o’rniga qarab marosimlarda, ibodatlarda kohinlar tomonidan o’qilgan, qavmlar unga ergashib ibodat qilganlar. Yasna kitobi (nask) tarkibiga Zardusht o’zi ijod qilgan targ’ibot she’rlari ham kirgan bo’lib, ular Yasnaning 17 ta “Ha”sini tashkil qiladi. Yasna she’rlari ilmiy adabiyotda Gatalar deb atab kelinadi. “Ha” – “ Bashorat” demakdir. Yasnada olovning muqaddasligi haqida bob bo’lib, zardushtiylik urf-odatlar orasida olovga e’tiqod qilish, dinning esa “Otashparastlik” deb atalishining sabablari ham shunga bog’liqdir. Zardushtiylik dinida olov Axura-Mazda nurining quyoshda namoyonligi va uning yerdagi zarrasi deb hisoblangan. Oliy haqiqat Arta ham olovda o’z ifodasini topgan. Arta so’zi fonetik o’zgarib, dastlab Atar, hozir esa Otash shaklida ishlatilib kelmoqda.

“Avesto”ning uchinchi kitobi “Vispered” deb nomlangan. U 24 bobdan iborat bo’lib, har bir bob alohida karde deb atalgan hamda ma’budlar sha’niga o’qilgan duolar va ibodat ustida ularga murojaatlar, bundan tashqari olamni bilishga doir pand-nasihatlardan iboratdir. “Vispered” ibodat namozlari yig’indisi hamda Yasnaga qo’shimcha hisoblanadi.

“Avesto”ning to’rtinchi kitobi “Yasht” (gimn) deb ataladi. U “Avesto”ning qadimiy qismi bo’lib, 22 bobdan iborat. Har bir bob Axura-Mazdadan boshlab, u yaratgan va uning ma’lum vazifalarini bajaruvchi ma’budlar sha’niga aytilgan madhiyalardan iborat.

“Avesto” haqidagi eng muhim manba IX asrga oid “Dinkard” (Din amallari) asaridir. Unda “Avesto”ning 21 kitobi to’la ta’riflab berilgan. Bu ta’riflar savobli ishlar yo’riqnomasi; diniy marosimlar va rasm-rusumlar qoidasi; zardushtiylik ta’limoti asoslari; dunyoning Axura-Mazda tomonidan yaratilishi; oxirat kuni va undagi hisob-kitob; falakiyot; ijtimoiy-huquqiy qonun-qoidalar; Zardushtning tug’ilishi va bolaligi; haq yo’lini tutish; jamiyat a’zolarining haq-huquqlari; devlar, jinlar kabi yovuz kuchlarga qarshi o’qiladigan duolar, amallar va boshqalardan iboratdir.

Hozirgi kunda Zardushtiylikka e’tiqod qiluvchi diniy jamoalar mavjud bo’lib, ular Hindistonning Mumbay (Bombey, G’ujarat shtatlarida 115 ming kishiga yaqin), Pokiston, Shri Lanka, Buyuk Britaniya, Kanada, AQSh, Avstraliya va Eronning (Tehronida 19 ming kishidan ortiq) ba’zi chekka viloyatlarida saqlanib qolgan. Eron Islom Respublikasida Zardushtiylik diniga e’tiqod qilish qonun tomonidan ruxsat etilgan. Mumbayda Zardushtiylarning madaniy markazi Koma nomidagi institut faoliyat olib boradi. Mumbayda homiy Dhalla raisligida dunyo zardushtiylari madaniyati fondi ishlab turibdi. 1960-yilda Zardushtiylarning 1- umumjahon kongressi Tehronida o’tkazildi. Keyingi kongresslar esa Bombeyda o’tkazildi.

Zardushtiylik dini haqida fransuz olimi Anketil Dyuperon juda qimmatli ma’lumotlar qoldirgan. Anketil Dyuperon 1755-yilda Hindistonga ilmiy safar qilib, u yerdagi zardushtiylar orasida 3 yil

yashagan, ularning ibodatlari, urf-odatlarini yaxshi o'rgangan va "Avesto" ni fransuz tiliga tarjima qilgan. 3 Jildlik tarjima 1771- yilda nashr etilgan.

Zardushtiylikning markazi Markaziy Osiyo bo'lib, bu fikrning to'g'riligini "Avesto" ham isbotlaydi. Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto" da yakkayu-yagona xudo Axura-Mazda yaratgan 16 mamlakatdan 9 tasining nomi Janubi-G'arbiy va Markaziy Osiyodagi viloyat va shaharlardir. Ikkitasi afsonaviy bo'lsa, qolgan 5 tasi Hindiston, Ozarbayjon va Armaniston hududlariga to'g'ri keladi.

<http://istiqlol.samdu.uz/uzc/article/223>